

MAMALAKATIMIZDA TURIZM SOHASIGA INVESTITSIYALARNI JALB ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

Zokirova Feruza Farhod qizi
Toshkent moliya instituti o'qituvchisi

Annotasiya: Maqolada mamalakatimizda turizm sohasiga investitsiyalarini jalb etishni takomillashtirish istiqbollari bo'yicha dunyoning yetakchi olimlari fikrlari o'rganilgan, turizm sohasiga investitsiyalar jalb qilish yo'naliishlari tizimlashtirilgan, mamlakatimzga tashruf buyurgan turistlarni asosiy maqsadlari, soni va boshqa sifatlari tahlil qilingan, mamalakatimizda turizm sohasiga investitsiyalarini jalb etishni takomillashtirish istiqbollari bo'yicha asoslantirilgan xulosa va takliflar ishlab chiqilgan hamda mamlakatimizda qo'llash bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Tayanch so'zlar: Turizm, investitsiya, investitsion jozibadorlik, "SMART" texnologiya, viza, infrastruktura.

MAIN DIRECTIONS TO'INCREASE THE ATTITUDE OF THE INVESTMENT ENVIRONMENT IN OUR COUNTRY

Zokirova Feruza Farkhod kizi
Teachar of Tashkent institute of Finance

Annotation: In the article, the opinions of the world's leading scientists on the prospects of improving the attraction of investments in the tourism sector in our country were studied, the directions of attracting investments in the tourism sector were systematized, the main goals, number, and other qualities of tourists visiting our country were analyzed, and the prospects of improving the attraction of investments in the tourism sector in our country were justified. conclusions and proposals were developed and recommendations for application in our country were given.

Keywords: Tourism, investment, investment attractiveness, "SMART" technology, visa, infrastructure.

1. Kirish

Jahon xo'jaligida turizm tarmog'i shiddat bilan rivojlanayotgan va eng yuqori daromad keltiruvchi tarmoqqa aylanib bormoqda. Bu soha yer yuzida jami tovar va avtomobil sanoatidan keyingi uchinchi o'rinda turadi. Turizm sohasi jahonda bo'ladigan jami eksportning 10 foizini beradi, xizmatlar savdosining esa 35 foizi turizmga to'g'ri keladi.

Turizm aholi bandligiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. "Ekspertlar baholashicha, turizm industriyasida ish o'rirlar soni 200 million kishidan ortiqni tashkil etib, jahonda bandlik ko'rsatkichining 8 foizini tashkil etadi. Har yili turizm sohasida 1-1,5 foiz yangi ish o'rnlari yaratilmoqda"¹.

Turizmnii, avvalambor, xususiy sektorda rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ko'rsatilayotgan xizmatlarning raqobatdoshligini va sifatini oshirish, milliy

¹ Дурович А.П. Организация туризма. Учебное пособие. – СПб.: «Питер», 2009. – С. 46.

turizm mahsulotini dunyo bozorida faol va kompleks ravishda targ'ib qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi² Farmoni qabul qilindi. Farmon asosida 2019-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Kontseptsiyasi qabul qilindi va quyidagi vazifalar belgilab berildi: turizm faoliyati sohasidagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, turizmni rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan xalqaro me'yor va standartlarni implementatsiya qilish; turizm infratuzilmasini rivojlantirish hamda maqbul va qulay turizm muhitini yaratish; transport logistikasini rivojlantirish, ichki va tashqi yo'nalishlarni kengaytirish, transport xizmatlari sifatini oshirish; turizm bozorining turli segmentlariga yo'naltirilgan turizm mahsuloti va xizmatlarini diversifikatsiya qilish; respublika ichida turizm xizmatlariga bo'lган ehtiyojni qondirishga yo'naltirilgan turizm faoliyati sub'ektlarining faolligini rag'batlantirishni ta'minlovchi ichki turizmni rivojlantirish; O'zbekiston turizm mahsulotini xalqaro va ichki turizm bozorlarida targ'ib qilish, mamlakatning sayohat va dam olish uchun xavfsiz sifatidagi imidjini mustahkamlash, turizm tarmog'i uchun kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimini takomillashtirish.

2. Adabiyotlar sharhi.

Mavzuga oid adabiyotlarni tahlil etish jarayonida turizm sohasiga investitsiyalarni jalg etishni takomillashtirish yuzasidan bir qancha yetakchi iqtisodchi olim va mutaxassislar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilganligiga guvoh bo'ldik, ular quydagilardan iboratdir. Ulardan A.V.Babkin o'zining "Turizmning maxsus turlari" nomli o'quv qo'llanmasida "diniy turizm muqaddas joylar, diniy markazlarga borayotgan turistlarga xizmat ko'rsatish va ularning ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lган faoliyat turi hisoblanadi. Ziyorat turizmi esa, biron bir dinga e'tiqod qiluvchi kishilarning tavof qilish maqsadida muqaddas joylarga borishi" degan ilmiy qarashni olg'a suradi³.

M.A.Vinokurov ziyorat turizmini biroz kengroq tushuncha deb hisoblaydi va uning fikricha, diniy (ziyorat) turizmi muqaddas joylarga, cherkov yodgorliklari va markazlariga tashrif buyurishni, muhim diniy marosimlarda ishtirok etish, turli din tarixi va madaniyati bilan tanishish uchun tashkil qilinadigan turizmning bir turi hisoblanadi⁴.

M.E.Po'latov, I.S.Tuxliyev va A.Sh.Berdimurodovlar o'zlarining ilmiy ishlarida "Turizm sohasining zamонавий атамалари изоҳли lug'ati: ма'lumotlar to'plami"da "Ziyorat turizmi –diniy turizmning bir turi. Ziyorat safarlari turli xil dinga va e'tiqodlarga sodiq odamlar tomonidan amalga oshiriladi. Odatta, bu muqaddas joylarga sayohatlarni, monastrlarga va turli xil tarixiy-arxeologik maskanlarga tashriflarni o'z ichiga oladi" degan tavsifni keltirishadi⁵.

A.A.Xudoyarov tomonidan "...yurtimizning diniy obidalarga boyligi, tarixan islom dini rivojlangan mintaqalardan biri bo'lganligini, bu esa ziyorat turizmni muvaffaqiyat

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5611-son Farmoni.

³ Бабкин А.В. Специальные виды туризма. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2008. – 252 с

⁴ Винокуров М.А. Что такое туризм? // Известия Иркутской государственной экономической академии. – 2004. – № 3. – С. 19-24

⁵ Тухлиев И.С., Пўлатов М.Э., Бердимуродов А.Ш. "Туризм соҳасининг замонавий атамалари изоҳли лугати: маълумотлар тўплами". С.: 2020 й.

bilan rivojlantirish imkoniyatini berishini, bugungi kunda Malayziya, Indoneziya, Pokiston, Saudiya Arabiston, Afg'oniston, Turkiya, Birlashgan Arab Amirliklari kabi musulmon mamlakatlaridan tashrif buyurayotgan ko'plab turistlarning asl maqsadi respublikamizda mavjud diniy obidalarni ziyorat qilishdan, tanishishdan iborat ekanligini ta'kidlaydi⁶.

G.A.Karpova va L.B.Xorevalar tomonidan "Tarixiy-madaniy turizm – bu shaxslarning chegaralardan tashqaridagi harakatidir. Doimiy yashash joyi, to'liq yoki qisman asoslantirilgan madaniy, shu jumladan, madaniy diqqatga sazovor joylarga tashrif buyurishga qiziqtiruvchi tadbirlar, muzeylar va tarixiy joylar, san'at, musiqa, teatrлar, konsert maydonchalari, tarixiy merosni aks ettiruvchi mahalliy aholining vaqtлari, innovatsion san'at va ijrochilik san'ati, an'anaviy qadriyatlar faoliyat va kundalik turmush tarzi aholisi uchun eng so'nggi ma'lumotlarni tajriba va taassurotlarni olish uchun ularning madaniy ehtiyojlarini qondirish"⁷.

3. Tadqiqot metodologiyasi.

Turizm sohasiga investitsiyalarini jalb etishni takomillashtirish bo'yicha dunyo olimlari va iqtisodchilari tomonidan olib borilayotgan tadqiqodlarni o'rganish, ma'lumotlar to'plash, to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilish, sintezlash, mantiqiy fikrlash kabi iqtisodiy tadqiqot usullaridan keng foydalanildi.

4. Tahlil va natijalar muhokamasi.


Turizm qisqa vaqt ichida eng tez rivojlanayotgan va serdaromad sohaga aylanib ulgurdi. Shu bois ko'plab mamlakatlar ushbu sohani yanada taraqqiy ettirish, tegishli infratuzilmani dunyo talablari darajasiga ko'tarishga harakat qilmoqda. Demak, investitsiyalar – bu turli shakldagi boyliklar bo'lib, foyda olish maqsadida iqtisodiyot tarmoq va sohalariga kiritiladi (joylashtiriladi). Xususan, turizmn rivojlantirishga investitsiyalar soha bilan bog'liq bo'lган asosiy fondlarni barpo etish (mehmonalar qurilishi, turizm infratuzilmasini rivojlantirish), yangi va qulay xizmatlar tashkil qilishga ham yo'naltiriladi.

Hozirgi kunda chet el sarmoyalarni jalb etmasdan investitsion faollikni oshirish va sarmoya resurslarini ko'raytirishning sira iloji yo'q. Xorijiy sarmoyaning faol ahamiyatini nafaqat AQSh, Germaniya, Fransiya kabi rivojlangan mamlakatlarda, balki Janubiy Koreya, Tayvan, Singapur, Gonkong singari Osiyoning tezlikda rivojlangan mamlakatlari hamda Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida ham ko'rish mumkin. Qo'shma korxonalarini tashkil qilish, qo'shma ishlab chiqarish va turistik majmualarini hamkorlikda qurish uchun to'g'ridan-to'g'ri xorij sarmoyalarni jalb etish, amaldagi obyektlarni ta'mirlash va yangilash investitsion siyosatning eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Turizm sohasiga investitsiyalar jalb qilishning shakllarini quyidagi rasmida alohida ajratib ko'rsatish mumkin:

⁶ <https://cyberleninka.ru/article/n/zbekistonda-ziyorat-turizmi-bozoriningrivozhanishida-tizimli-yondashuv-masalalari -va-uning-hususiyatlari>

⁷ Ekonomika i upravlenie turistskoy deyatelnostyu. – M.: «Ekonomika», 2011. – 135 b.



1-rasm. Turizm sohasiga investitsiyalar jalb qilish yo'nalishlari⁸

Jahon xo'jaligida turizm tarmog'i shiddat bilan rivojlanayotgan va eng yuqori daromad keltiruvchi tarmoqqa aylanib bormoqda. Bu soha yer yuzida jami tovar va avtomobil sanoatidan keyingi uchinchi o'rinda turadi. Turizm sohasi jahonda bo'ladigan jami eksportning 10 foizini beradi, xizmatlar savdosining esa 35 foizi turizmga to'g'ri keladi. Buyuk ipak yo'lida joylashgan, asrlar davomida qadimiy shaharlari bilan mashhur, tarixiy va madaniy o'tmishga ega O'zbekiston turizm tarmog'ini rivojlantirish uchun real imkoniyatlarga ega. O'zbekiston o'zining tarixiy yodgorliklari, boy madaniy va tarixiy an'analarini saqlab qolgan, go'zal va betakror tabiat manzaralariga ega davlat hisoblanadi. "Yurtimizda 7 ming 300 dan ortiq madaniy meros obyektlari mavjud va ularning aksariyati YuNESKO ro'yxatiga kiritilgan"⁹. Buyuk ipak yo'lida joylashgan yurtimizda tarixiy va madaniy an'analar asrab-avaylab avloddan-avlodga o'tib kelmoqda. O'zbekistonning turistik markazlari hisoblangan shaharlar – Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrishabz YuNESKO tashkiloti tomonidan e'tirof etilgan. 1994 yildan boshlab, respublikada turizm sohasini rivojlantirish masalalari bo'yicha ko'plab xalqaro anjumanlar, ko'rgazmalar, madaniyat kunlari o'tkazilib kelindi.


Jahon turizm tashkiloti hisob-kitobiga ko'ra, xalqaro sayyoohlarning 40-60 foizini tabiat ajoyibotlari obyektlarini ko'rishni istovchi ekoturistlar tashkil etadi.

Ayni paytda turizm jahon iqtisodiyotida yuqori daromadli, mamlakatning moliyaviy, madaniy va intellektual maqomini belgilovchi etakchi omilga aylandi. Xususan, turizmdan ko'rildigan foyda Yevropaning rivojlangan mamlakatlari, Xitoy va Sharqiy Osiyoning YaIM va byudjet daromadlarining katta qismini, ayrim "mitti" davlatlar

⁸ Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Oliy majlisga murojaatnomasi. "Qishloq hayoti" gazetasi. № 153-154(8861)-son. 2017-yil 23-dekabr. – B. 5.

byudjetining 70-90 foizini tashkil qilmoqda. Bu esa ularda aholi bandligi ta'minlanishiga, turmush sifati hamda hayot darajasi sezilarli darajada oshishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatmoqda.




2-rasm. Turistik maqsadlarda kelgan chet el fuqarolarining safar maqsadlari boʼyicha taqsimlanishi (2022- yil yanvar-iyun, ming kishi)¹⁰

2022-yilning yanvar-iyun oylarida Oʻzbekistonga kelgan chet el fuqarolari safar maqsadini oʼqish uchun deb belgilaganlar soni 2,1 ming kishiga (jami kelganlarning 0,1 % i) teng, tijorat maqsadida kelganlar – 7,1 ming kishi (0,4 %), xizmat safari uchun – 30,2 ming kishi (1,6 %), davolanish uchun – 37,7 ming kishi (2,0 %), boʼsh vaqt va dam olish uchun – 137 ming kishi (7,3 %). Eng koʼr sayohatlarning maqsadlariga esa qarindoshlarni yoʼqlash deb belgilanganlari – 1662 ,2 ming kishi (88,6%).

Tegishli davrning oʼtgan 2021-yiliga nisbatan xizmat safarlari 10,2 % ga, tijorat maqsadidagi safarlar 24,6 % ga oshgan. Boʼsh vaqtini oʼtkazish va dam olish uchun amalgalashirilgan safarlar 2,1 baravarga, qarindoshlarni yoʼqlash uchun – 2,9 barobarga va davolanish safarlari 3,2 barobarga oshgan. Ammo oʼqish maqsadidagi safarlar, aksincha, 34,4 % ga kamaygan.


Quyida keltirilgan grafiklardan xulosa qilish mumkinki, 2022-yilning I yarim yilligida xorijiy davlatlardan (MDH davlatlaridan tashqari) chet el fuqarolari Oʻzbekiston Respublikasiga asosan boʼsh vaqtini oʼtkazish va dam olish uchun – 48,8 ming kishi (xorijiy davlatlardan (MDH davlatlaridan tashqari) tashrif buyurganlarning umumiy sonidan 50,9 % i), qarindoshlarini yoʼqlash uchun – 30,5 ming kishi (31,8 %) hamda xizmat safari maqsadida – 12,7 ming kishi (13,2 %) tashrif buyurgan. Tijorat maqsadida – 2,5 ming kishi (2,6 %), oʼqish uchun – 1,3 ming kishi (1,4 %) va davolash uchun – 0,1 ming kishi (0,1 %) kelgan.

¹⁰ Statistika agentligining maʼlumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.



3-rasm. MDH hamda boshqa davatlardan kelgan turistlar soni¹¹

O'z o'rniда, MDH давлатларидан esa qarindoshларидан xabar olish maqsadida – 1631,7 ming kishi (MDH давлатларидан tashrif buyurganlarning umumiyl sonidan 91,6 %), bo'sh vaqt va dam olish uchun – 88,2 ming kishi (5,0 %) hamda davolanish maqsadida – 37,6 ming kishi (2,1 %) respublikamizga kirib kelishgan. Xizmat safari maqsadida – 17,5 ming kishi (1,0 %), tijorat uchun – 4,6 ming kishi (0,3 %) va o'qish sababli – 0,8 ming kishi (0,04 %) kelgan.



4-rasm. O'zbekiston Respublikasiga xorij davlatlaridan kelgan chet el fuqarolari (2022-yil yanvar-iyun, ming kishi)¹²


O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolarining asosiy qismi Qirg'iz Respublikasidan – 548,8 ming kishi (jami kirib kelgan chet el fuqarolaridan 29,3 % ini tashkil etdi), Qozog'istondan – 534,9 ming kishi (28,5 %), Tojikistondan – 493,6 ming kishi (26,3 %), Rossiyadan – 185,6 ming kishi (9,9 %), Turkiyadan – 31,9 ming kishi (1,7 %), Belarus Respublikasidan – 6,8 ming kishi (0,36 %), Germaniyadan – 6,5 ming kishi (0,35 %), Janubiy Koreyadan – 6,3 ming kishi (0,34 %), AQSHdan – 4,9 ming

¹¹ Statistika agentligining ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

¹² Statistika agentligining ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

kishi (0,26 %), Ukrainadan – 4,9 ming kishi (0,26 %), Fransiya – 4,4 ming kishi (0,23 %), Hindistondan – 4,1 ming kishi (0,22 %), Ozarbayjondan – 4,0 ming kishi (0,21 %) va Isroildan – 3,8 ming kishi (0,2 %) kirib kelgan.

Qolgan 35,8 ming kishi (1,87 %) O‘zbekistonga boshqa xorijiy davlatlardan kelganlar.



5-rasm. Xorijiy sayyoohlar yoshlari kesimida¹³

2022-yilda turistlar soni yana keskin o‘sib, qariyb 5,2 million nafar xorijiy sayyoohlar O‘zbekistonga tashrif buyurdi va ko‘rsatkichlar 2017-yilga (2,7 million nafar) nisbatan 1,9 baravarga o‘sdi. O‘tgan yili turizm xizmatlari eksporti hajmi ham oshib, 1,6 mlrd dollarga yetgan (2017-yilda 531 million dollar bo‘lgan).

O‘zbekistonda qisqa fursatda mazkur sohaga yetarlicha e’tibor qaratilishi natijasida zamonaviy turizm industriyasini shakllantirish uchun ko’plab imkoniyat va shart-sharoitlar yaratildi. Shu bilan birga, mamlakatimizda turizmni rivojlantirishga kompleks yondashish, zamonaviy sayyoohlik infratuzilmasi obyektlarini shakllantirish, hududlardagi mavjud salohiyatdan to’liqlik va samarali foydalanish borasida amalga oshirilayotgan ishlar ham bugungi kunning dolzarb masalalaridan biriga aylantirildi. Xususan, sayyoohlik sohasida tadbirkorlar faolligini rag’batlantirish, xizmatlar sohasi bozorini shakllantirish maqsadida bir qancha tumanlarda xalq hunarmandchiligi mahsulotlari va esdalik sovg’alar bilan savdo qiluvchi rastalar tashkil qilindi. Sayyoohlar mazkur shahobchalar va savdo rastalaridan turli esdalik buyumlarni mammuniyat bilan xarid qilishmoqda.

Mamlakatimizda turizm sohasini tubdan oshirish, boy tarixiy-madaniy merosni har tomonlama targ’ib qilish, xorijiy mamlakatlarning nufuzli tashkilotlari bilan hamkorlikni kengaytirishga jiddiy e’tibor qaratish ijobiyligi natija beradi. Respublikaning barcha hududlarida jahon standartlariga mos keluvchi turizm infratuzilmasini yaratish, avvalo, sayyoohlik yo’nalishidagi yo’l-transport va muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini,

¹³ <https://daryo.uz/2023/02/04/ozbekistonda-turizm-kecha-va-bugun>

xizmat ko'rsatish hamda logistika sub'ektlarini, tarixiy-madaniy va arxeologik obidalarni inventarizatsiya qilish, xalqaro turizm mezonlariga muvofiqlashtirish bo'yicha muhim chora-tadbirlar amalga oshirilishi talab etiladi. Zero, turizm infratuzilmasi rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti dinamik tarzda o'sib, deyarli barcha sohalarga u yoki bu tarzda ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shuning uchun mamlakatimizda turizm rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar sifatida quyidagilarni e'tirof etish mumkin:

- iqtisodiy o'sish va ijtimoiy rivojlanishning sayyohlik sohasiga jalg qilinayotgan moliyaviy mablag'lar bilan bevosita bog'liqligi;
- barcha transport turlari takomillashtirilishi tufayli yo'l haqi arzonlashishi;
- yollanma ishchilar sonining ko'payishi hamda xizmatlar sifatining yaxshilanib borishi;
- mehnat qilish jarayonining intensivlashuvi, ishchi-xizmatchilarning uzoq muddatli ta'tilga chiqishlari uchun imkoniyatlar yaratilishi;
- davlatlararo va hududlararo o'zaro aloqalar, mamlakatlar o'rtasida madaniy munosabatlarning rivojlanishi;
- xizmat ko'rsatish hamda yuk tashish jarayonida maksimal rivojlanishning telekommunikatsiya faoliyatini rag'batlantirishi;

5. Xulosa va takliflar.

Turizmnинг iqtisodiyot rivojiga ta'sirini oshirish va unga investitsiyalarni jalg etishni rag'batlantirishda quyidagi taklif va tavsiyalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

– turizm sohasida, ya'ni madaniy meros obyektlari va muzeylarga touristlarning tashrifini hisobga olish jarayonida aniq ma'lumotga ega bo'lish uchun, uni o'lchaydigan holatga keltirishga erishiladigan, dolzarb va vaqt jihatidan chegaralangan holatda "SMART" texnologiyasini qo'llash maqsadga muvofiqdir. Buning muhim jihatni, kelib-ketgan touristlarni aniq ro'yxatga olish bilan birga, pul tushumini ham aniq hisoblash imkonini beradi. Natijada pul tushumi va uni o'zlashtirish bilan bog'liq turli qonunbuzarliklarning ham oldi olinadi;

– rivojlangan va ayrim rivojlanayotgan mamlakatlar fuqarolari uchun "elektron investitsion viza"lar berish tizimini takomillashtirish kerak. Elektron viza tizimini belgilangan muddatlarda ishlashini ta'minlash, jahon tajribasini o'rgangan holda bu tizimni yanada soddallashtirish va xorijiy touristlar kelishi tartibini muntazam engillashtirib borish, ularni ro'yxatga olish tiziminiyanada soddallashtirish zarur. Turistga shart qo'yish emas, balki sharoit yaratish maqsadga muvofiqdir;

– bugunga qadar joylardagi davlat organlari, tegishli vazirliklar va turizm sohasidagi vakolatli davlat organi o'rtasida turizmga investitsiyalarni jalg qilish bo'yicha hamkorlikning aniq mexanizmi yo'qligi respublikada zarur touristik infratuzilma yaratish va sohani tezkor rivojlantirish yo'lidagi to'siqlardan biridir. Shuning uchun hududlarda touristik infratuzilma obyektlarini tashkil etish niyatida bo'lgan investorlarga yer uchastkalari berish, joylarda davlat hukumat organlari tomonidan touristik infratuzilma obyektlarini rivojlantirish hududlarini tanlash, ularni investitsiya loyihalari talablariga

moslashtirish, xorijiy investorlarni keng jalg qilish, shuningdek, sohadagi ishlarni tizimli ravishda amalga oshirilishini ta'minlash zarur;

– sayyoohlarga xizmat ko'rsatuvchi gidlar ishini faollashtirish kerak. Sayyoohlар O'zbekistondagi diqqatga sazovor joylarga o'zi tashrif buyursa boshqacha, gid bilan tashrif buyurganda esa butunlay boshqacha bo'ladi. Gid tarixiy qadamjolar, me'moriy obidalar haqida juda ko'p narsani so'zlab berishi mumkin. U sayyoohni mana shu hududda ko'proq vaqt o'tkazishida muhim o'rinni tutadi. Shu boisdan hozirda mazkur yo'nalihsidagi mutaxassislar tayyorlash tizimini takomillashtirish talab etiladi;

– hududlarning turistik imkoniyatlaridan samarali foydalanish va mavjud muammolarni o'rganish va ijobjiy hal etishda so'rov-tadqiqot usulidan keng ko'lamda foydalanish kerak;

6. Adabiyotlar:

1. Дурович А.П. Организация туризма. Учебное пособие. – СПб.: «Питер», 2009. – С. 46.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi “O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF-5611-son Farmoni.
3. Бабкин А.В. Специальные виды туризма. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2008. – 252 с
4. Винокуров М.А. Что такое туризм? // Известия Иркутской государственной экономической академии. – 2004. – № 3. – С. 19-24
5. Тухлиев И.С., Пўлатов М.Э., Бердимуродов А.Ш. “Туризм соҳасининг замонавий атамалари изоҳли лугати: маълумотлар тўплами”. С.: 2020 й.
6. <https://cyberleninka.ru/article/n/zbekistonda-ziyorat-turizmi-bozoriningrivozhlanishida-tizimli-yondashuv-masalalari -va-uning-hususiyatlari>
7. Ekonomika i upravlenie turistskoy deyatelnostyu. – M.: «Ekonomika», 2011. – 135 b.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Oliy majlisga murojaatnomasi. “Qishloq hayoti” gazetasi. № 153-154(8861)-son. 2017-yil 23-dekabr. – B. 5.
9. O'zbekiston respublikasi prezidenti huzuridagi Statistika agentligining ma'lumotlari <https://www.stat.uz/uz/>.
10. <https://daryo.uz/2023/02/04/ozbekistonda-turizm-kecha-va-bugun>
11. Raimjanova M., Popluga D. BIOECONOMY CONCEPT AND POSSIBILITIES OF ITS IMPLEMENTATION IN UZBEKISTAN AGRICULTURE FOR MAKING IT MORE ATTRACTIVE FOR INVESTMENTS //Economic Science for Rural Development Conference Proceedings. – 2023. – №. 57.
12. Asrarovna R. M. FINANCING THE GREEN ECONOMY IN DEVELOPING COUNTRIES: A FOCUS ON UZBEKISTAN //Best Journal of Innovation in Science, Research and Development. – 2023. – T. 2. – №. 10. – С. 507-511.
13. Sangirova U. R. et al. Food logistics of dairy products in the food market of Uzbekistan //IOP Conference Series: Materials Science and Engineering. – IOP

Publishing, 2020. – Т. 918. – №. 1. – С. 012139.

14. Asrarovna R. M. Agricultural investments as the main factor increasing the agricultural sector's competitiveness //ECONOMIC SCIENCE FOR RURAL DEVELOPMENT 2020. – 2020. – С. 118.

15. Fakhmuddin-kizi B. A. FOREIGN EXPERIENCE IN FINANCING INVESTMENT PROJECTS FROM DECENTRALIZED SOURCES //EPRA International Journal of Environmental Economics, Commerce and Educational Management (ECEM). – 2023. – Т. 10. – №. 11. – С. 8-11.

16. Botirxuja Aziza Fahmuddin kizi. (2023). ECONOMIC INDICATORS AND THEIR IMPACT ON STOCK PRICES. International Journal of Global Economic Light, 9(9). Retrieved from <https://eprajournals.net/index.php/JGEL/article/view/3172>

17. Botirxuja Aziza Fahmuddin qizi. (2023). FOND BOZORI ORQALI XORIJUY INVESTITSIYALARNI JALB ETISH AMALIYOTI TAHLILI. "MOLIYA-IQTISOD", 2(1), 39–46. Retrieved from <https://sciencepromotion.uz/index.php/MOLIYA-IQTISOD/article/view/552>

18. Zokirova Feruza Farhod qizi. (2023). MILLIY IQTISODIYOTGA XORIJUY INVESTITSIYALARNI JALB ETISHDAGI MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI. "MOLIYA-IQTISOD", 2(1), 47–54. Retrieved from <https://sciencepromotion.uz/index.php/MOLIYA-IQTISOD/article/view/553>

19. Raimjanova M. et al. The Consequences of the Pandemic on the Inflow of Foreign Investment Abroad and in the Republic of Uzbekistan //International Scientific Conference on Agricultural Machinery Industry "Interagromash"". – Cham : Springer International Publishing, 2022. – С. 3117-3124.

20. Aliqulov M. Эркин иқтисодий зоналар фаолиятини ривожлантиришда хориж тажрибаси (Россия Федерацияси мисолида) //Scienceweb academic papers collection. – 2020.

21. Alikulov Mekhmonali Salahiddin ugli. (2023). SPECIFIC CHARACTERISTICS AND TRENDS OF FINANCING THE AGRICULTURAL NETWORK. "MOLIYA-IQTISOD", 2(1), 55–61. Retrieved from <https://sciencepromotion.uz/index.php/MOLIYA-IQTISOD/article/view/554>

22. Aminova N. U. Q., Zukhurova M. S. Q., Tulagankhujaeva I. S. Q. INVESTMENT PROCESS AND INVESTMENT POLICY //Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 2. – С. 219-225.

23. Kabilovna S. N. Features of investment risk analysis and assessment //Economic Science for Rural Development Conference Proceedings. – 2021. – №. 55.